



ZAMONAVIY PUL NAZARIYALARI VA ULARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI (M.FRIDMAN)

Ismoilova Gulnora Fayzullaevna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Management va marketing kafedrasi mudiri, i.f.n., dos

Annotatsiya. Maqolada monetarizm va uning rivojlanishi, nazariy tushunchalar va unga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan bo'lib, klassik olimlarning tadqiqotlari o'rganilgan va zamonaviy nazariyalar bilan taqqoslangan. Ilmiy maktablarda olimlarning monetarizmga bergan ta'riflari, ularning iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishga ta'siri taxlil qilingan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, pul, monetarizm, pul talabi, pul taklifi, ishsizlik.

СОВРЕМЕННЫЕ МОНЕТАРНЫЕ ТЕОРИИ И ИХ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ (М. ФРИДМАН)

Исмоилова Гулнора Файзуллаевна

Заведующий кафедрой менеджмента и маркетинга

Ташкентского университета информационных технологий имени

Мухаммада аль-Хоразми, к.э.н., доц.

Аннотация. В статье рассматривается монетаризм и его развитие, теоретические концепции и факторы, влияющие на него, изучаются исследования ученых-классиков и сравниваются с современными теориями. Проанализированы определения монетаризма учеными научных школ, их влияние на становление и развитие экономики.

Ключевые слова: экономика, деньги, монетаризм, спрос на деньги, денежная масса, безработица.

MODERN MONETARY THEORIES AND THEIR STAGES OF DEVELOPMENT (M. FRIEDMAN)

Ismoilova Gulnora Faizullaevna

Head of the Department of Management and

Marketing of Tashkent University of Information

Technologies named after Muhammad al-Khorazmi, Ph.D

Abstract. The article examines monetarism and its development, theoretical concepts and factors influencing it, studies of classical scholars are studied and compared with modern theories. Definitions of monetarism by scientists in scientific schools, their influence on the formation and development of the economy were analyzed.

Key words: economy, money, monetarism, money demand, money supply, unemployment.

Kirish.

O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab iqtisodiy nazariya va siyosatda monetarist qarashlar tez rivojlana boshladi va 70-yillarda monetaristik qarashlar tarkibida "Yangi klassik qarashlarning shakllanishi oqibatida" iqtisodiy nazariyalar qatoriga qadam bosdi. Qolaversa, 1980 - yillardan boshlab bir qancha mamlakatlarda (AQSh, Buyuk Britaniya, Isroil, Turkiya) monetarist iqtisodiy siyosatning amalda joriy qilinishi natijasida monetarizm maktabi borasida iqtisodiy nazariyotchilar o'rtasida bu maktab qarashlariga qiziqishlar o'yg'ondi. Xususan, monetarizm nazariyasi borasida turli fikrlar paydo bo'ldi va hatto asosida Keyns nazariyasi yotgan bir qancha tushunchalarga monetarist qarashlar deya ataldi. Monetarizm nazariyasining asoschisi mashhur iqtisodchi, Nobel mukofoti sovrindori M.Fridmandir.

Adabiyotlar sharhi.

Tadqiqotni amalga oshirishda bir necha mavzuga oid tadqiqotlar va adabiyotlar bilan tanishib chiqdik va ularning natijalarini talqin qildik.

Tadqiqotda asosan M.Fridman asarlari o'rganilgan bo'lib, monetar siyosatning davlatlar rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Jumladan Fridmaning (2006) "Kapitalizm va erkinlik" asarida monetar siyosatning davlat rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan.

Yana bir tadqiqotchi Fozilovning (1995) Turkiyada chop etilgan «Yeni gélişen ölkelerde merkez bankasının iktisadi istikrarı sağlamadaki rolü» maqolasida markaziy bankning monetarizm siyosatini olib borishdagi o'rni tahlil qilingan bo'lib, bunda muallif markaziy bankning vazifalari va iqtisodiy rivojlanishidagi rolini tahlil qilgan.

Xorijlik tadqiqotchilardan biri, turk olimi Parasizning (1995) "Para ve banka: teorik ve politik uygulamalar" maqolasida banklarning rivojlanish bosqichlari nazariy va siyosiy talqin qilingan va tadqiqot jarayonida ularning fikrlari o'rganilgan.

Skopus bazasida Ismoilova, Nabieva, Rahmatullaev, Umarovalar (2020) tomonidan chop etilgan "Macroeconomic development and factors affecting on it" maqolasida makroiqtisodiy rivojlanishda Fridman nazariyasining o'rni tahlil qilingan va uning ahamiyati o'rganilgan.

Bir necha mualliflar tomonidan Skopus bazasida chop etilgan "Modern money theories" maqolasida ham zamonaviy nazariyalar talqin qilingan va o'rganilgan (Ismoilova, Fozilov va boshq. 2019).

Tadqiqot metodologiyasi.

Uzoq muddat bu yangi maktabning qarashlari e'tiborga olinmadi. 1960-yildan keyin kutilmagan bir holat yuzaga chiqdi. Bu holat iqtisodiyotda inflyatsiya bilan ishsizlikning birgalikda ortishi holati edi. Bu holatga keynschilar izoh berisha olishmadi, ammo monetaristlar o'z tafsilotlarini nazariy jihatdan izohlashdi. Shu ondan boshlab monetarist nazariyasiga universitetlarda qiziqish orta boshladi va ta'lim dasturlariga kiritildi. Bu orada monetarist qarashlarning ta'siri siyosiy sohalarida ham ko'rina boshlandi.

Maqolada asosan Fridman (2006) qarashlari tahlil qilindi va u monetar siyosatning rivojlanishi va boshqa olimlarning fikrlari bilan solishtirishga, fikrlarni bildirishga harakat qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ma'luiki, monetarizm M.Fridman tomonidan ilgari surildi, ammo u yo'q joydan paydo bo'lmadi. Bugungi kunda ham yagona tushunchalarni himoya qiluvchi yagona monetarizm nazariyasi mavjud deb ayta olmaymiz. Shuning uchun ham monetarizm nazariyasining rivojlanishini 4 bosqichga ajratgan holda izohlash mumkin.

1-jadval

Ilmiy maktablar			
No	maktablar	ishtirokchilar	qarashlar
1	Chikago ilmiy maktabining paydo bo'lishiga qadar bo'lgan davr: So'zli Chikago maktabi	Xenri Simon, Loyd Mints, Paul Duglas, Aron Direktor va Jakob Viner	Bu olimlar o'z qarashlarini yozma – ilmiy shaklda bayon qilmaganligi uchun So'zli Chikago maktabi deya nom olgan
2	Monetarizm maktabi	Anna Shvars, Flipp Kogan, Richard Seyldan	M.Fridman boshchilik qilgan va mashhur iqtisodchilarni o'z ichiga olgan
3	Postmonetarizm maktabi	Karl Bryuner va Alan Meltzer kabi	ba'zi fikrlari bilan M.Fridmandan ajralib turgan
4	«Ratsional taxminlar nazariyasi» maktabidir	Tom Mut, Robert Lukas, Tomas Sarjent, Robert Barro, Brayn Kantor va Stenli Fisher	1970-yillarda paydo bo'lib, 1980-yillardan buyon mashhur bo'lgan

Keynsning nazariy qarashlariga qarshi AQSh Chikago Universitetining yosh professorlaridan Milton Fridman 1946 yildan boshlab, bir tomondan iqtisodiyotda pulning ahamiyati va ikkinchi tomondan amaldagi iqtisodiy siyosatlarning samarasizligi borasida o'z fikrlarini bayon qila boshladi. Bu

orada, Alan Meltzer va Karl Bryuner 1968 yilda ilk bora o'zlarining monetarizm atamasini o'rtaga tashladi.

Monetarizm o'z qarashlarining nazariy, siyosiy va metodologik va ideologik prinsiplarini ishlab chiqqan nazariyadir. Bu prinsiplarning hususiyati to'g'risida Tomas Mayer alohida bir asar yozgan.

Monetarizmning nazariy prinsiplari quyidagicha;

i. *iqtisodiy muvozanatning buzilishiga asosiy sabab pul taklifidagi beqarorlikdir.* Iqtisodiyotning real tarmog'i doimo muvozanatdadir;

ii. *pul talabi funksiyasi barqarordir.* M.Fridman mazkur hulosaga kelishdan avval klassik va Keyns nazariyalarida pul massasi va uning aylanish tezligini tahlil qilib chiqadi;

iii. *Klassik miqdor nazariyasiga ko'ra, nominal daromadga o'zgarishlar baholar darajasidagi o'zgarishlarga olib keladi.* Keyinchalik M.Fridman Keynsning kunlik harajat uchun pul talabining faqat aholi daromadiga bog'liq va foiz darajalarini sezmaydi degan fikrini, U.J.Baumvol va J.Tobinning 1950 yildagi nazariy fikrlariga tayangan holda yo'qqa chiqaradi;

Monetarizmning iqtisodiy siyosat bilan bog'liq prinsiplari esa quyidagichadir;

i. *kengaytiruvchi pul siyosati doimiy ravishda foiz darajalarining va ishsizlikning kamayishiga olib kelmeydi.* Chunki, ishsizlik-inflyatsiya zanjiri har doim ham amal qilavermaydi.

ii. *uzluksiz ravishda olib boriladigan ochiq byudjet siyosati natijasida davlat harajatlarning ortishi sababli foiz darajalari ham ortib xususiy tarmoqda investitsion harajatlarni qisqartiradi va shu tariqa iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi;*

iii. *holatga ko'ra, iqtisodiy siyosat iqtisodiy muvozanatni izdan chiqaruvchi va uni keskinlashtiruvchi eng salbiy omillardan biridir.*

iv. *yuqoridagi xavf-hatarning oldini olish uchun yagona taklifga ko'ra, iqtisodiy siyosat va bu qo'rol monetaristlarning tavsiyasiga ko'ra, monetar rivojlanish dastagidir.*

Monetaristlar metodologik nuqtai nazardan quyidagi prinsiplarni o'rtaga tashlaydi. Ularga ko'ra:

i. *fondlar bozori sof raqobat bozori hisoblanadi va shuning uchun monetaristlar iqtisodiyotning tarmoq tahlilidan qochib kon'yuktura tahliliga katta e'tibor beradilar;*

ii. *iqtisodiy tahlilda yirik modellardan ko'ra, kichik modellarga yo'naladilar.* Chunki, kichik modellar tahlili barcha komponentlarning jamlangan tahlilini yuzaga keltiradi. Ya'ni sodda til bilan aytganda mukammallik - mayda narsalarga e'tibor berishning mahsulidir;

iii. *asosiy e'tibor umumiy baholar darajasiga beriladi.* Sababi, iqtisodiyotda sub'ektlar absolyut bahoga emas, balki nisbiy baholarga, nominal pul qiymatiga emas balki real pul qiymatiga, nominal ish haqiga emas balki real ish haqiga ko'ra, harakat qiladi. Shuning uchun ham inflyatsiyaning olidini olish kompleks tadbirlar majmuasini talab qiladi. Absolyut baho deganda bitta tovarning bahosini tushunishimiz mumkin, nisbiy baho deganda esa bir tovarning boshqa bir tovarga nisbatan qiymatini tushunishimiz mumkin. Umumiy baholar darajasida esa bu komponentlarning barcha solishtirma qiymatda izohlanishi demakdir. Keyingi nazariy qarashlarda hatto foiz darajalari ham umumiy baholar darajasiga tarkibiga kiritilmoqda;

iv. *pul siyosatining asosiy maqsadi strukturaviy muammolarni yechish emas balki, pul miqdoridir.*

Monetarizmning ideologik prinsiplari esa quyidagicha;

i. *iqtisodchilar ishsizlikdan ko'ra, inflyatsiyaga qarshi keskin choralar ko'rish lozim;*

ii. *monetaristlar liberalizmni yoqlab, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini qoralaydi.*

Shu tariqa monetarizm nazariy qarash sifatida o'z asoslarini yaratdi.

Dastlab, M.Fridman o'z qarashlarini pul talabi va taklifi borasida to'pladi deyishimiz mumkin. M.Fridman pul talabining va pul talab funksiyasining barqarorligi tarafdori bo'lishi bilan birga, ushbu fikrlarini amaliy hamda nazariy jihatdan isbotlaydi. Shu uslub bilan u o'zining Keyns nazariyasiga e'tirozlarini bayon qiladi va uni tanqid qiladi. M.Fridman Keynsning likvidlik tanlovi va Klassik maktabning pul talabi o'rnini ankes talabi nazariyasining egallashiga katta xissa qushadi. Shu tariqa pul ayirbosh vositasi deb hisoblangan davrda pulning moliyaviy aktiv ekanligini isbotlashga xarakat qildi. M.Fridman biroz ilgari holda, pul talabini Neo - Klassiklarning foyda nazariyasiga olib borib bog'laydi. U o'zining 1956 yilda yozgan *Pulni qayta hisoblashning kvant nazariyasi (The quant teory of money a restatement)* nomli maqolasida ilk bor o'zining pul talabi nazariyasini o'rtaga tashlaydi.

M.Fridmanga ko'ra, pul, bir iqtisodiy sub'ektning sarmoya shaklida tutib turadigan aktivdir. Iste'molchi tanlov nazariyasida ta'kidlaganidek, pul talabi va boshqa aktivlar talabi uchta omilga bog'liq. Bular daromad, baho va zavqlanish omillaridir. M.Fridman pulga bir iste'mol tovaridan farqli ularoq bir aktiv, to'g'rirog'i sarmoya shaklida qaramoqda. U holda pul nazarisi sarmoya nazariyasining bir bo'lagi hisoblanadi. Shu shaklda M.Fridman pulni faqat ayirbosh vositasi sifatida tushunadigan

miqdorchilarning va faqat moliyaviy aktivlarning o'rnini bosuvchi sifatida ko'radigan keynschilarning va individ foydasini maksimumga erishtirishda vositachi sifatida qaraydigan Neo-klassiklarning qarashlarini inkor qiladi.

M.Fridmanga ko'ra, pul bozori muvozanatini A.Marshallning moddiy tovarning baho-miqdor muvozanati izohi borasida shakllantirgan modeli doirasida qidirish mumkin. Pul bozoridagi muvozanatni belgilovchi taraflarning nazariy tahlili, pul talabining pul taklifidan farqli ekanligini ko'rsatmoqda.

M.Fridman boyliklarni pul shaklida tutib to'rgan iqtisodiy sub'ektlar bundan quyidagi to'rt xil daromad ko'tishlarini aytib o'tadi (Fridman, 2006);

i. *boylik pul shaklida tutib turilganda bu pulni omonat qilib banklarga joylashtirish orqali qo'shimcha foiz daromadi olish mumkin. Bu yerda M.Fridman M_2 pul miqdorini nazarda tutmoqda;*

ii. *agar iqtisodiy sub'ektlar kelajakda baholarning ortishi va inflyatsion tahmindagi bo'lsalar, pulning qiymat yo'qotish havfi boshqa aktivlarga nisbatan kam bo'lganligi sababli o'z boyliklarini pul shaklida saqlaydilar²⁴;*

iii. *ishlab chiqaruvchilar uchun pul – ishlab chiqarish vositasi hususiyatiga ega. Boshqa moddiy ishlab chiqarish omillarining marjinal daromadlari kamayib salbiy hususiyatga ega bo'lsa, ishlab chiqarish omili sifatida pulning marjinal daromadi kamayuvchi, ammo doimiy ijobiydir. Shuning uchun ham firmalar ishlab chiqarish omili sifatida pul tutib turadilar. Moddiy aktiv sifatida tovarlar iste'molida chegara mavjud, ammo moliyaviy aktiv sifatida pulga bo'lgan talabda chegara yo'q;*

iv. *pul kishilarga "kuch va ishonch" baxsh etadi. Shuning uchun ham kishilar boshqa aktivlarga nisbatan o'z boyliklarini ko'pincha pul shaklida tutib tutadilar.*

Ammo, boylikni pul shaklida tutib turishning ba'zi bir tannarxi ham mavjud. Bularni M.Fridman J.Tobinga qo'shimcha ravishda quyidagi 4 xil shaklda tannarx bo'lishini izohlaydi:

i. *inflyatsiya jarayonida baholarning ortishi natijasida, pul tutib turishning tannarxi ortadi. Chunki, bunday hollarda pul tutib turishdan daromad kamayishi mumkin.*

ii. *o'z boyliklarini turli aktivlar shaklida tutib to'rgan kishilarda fursat tannarxi, boyligini faqat pul shaklida tutib to'rgan kishilarning fursat tannarxidan kichik bo'ladi.*

iii. *pulni yo'qotish, ug'irlatish, omonati ochilgan banklarning bankrot bulish havfi ham naqd pul tutib turishning tannarxini izohlaydi.*

iv. *qo'lda pul bo'lgan paytda sarflangan 1 so'm puldan olingan daromad darajasi ham vaqt oralig'ida turlicha bo'ladi. Bugungi sarflangan 1 so'mni, iste'molni kechiktirgan holda kelajakda sarflansa bundan ham yuqori daromad olish imkoniyati paydo bo'lishi mumkin. Buni M.Fridman kelajakda iste'molni orttirish uchun bugungi iste'molni kamaytirish iste'molning marjinal diskont darajasini orttiradi shaklida izohlaydi. Ya'ni, ko'p bo'lsa ketadi, kam bo'lsada yetadi shaklida qo'lda, naqd pul bo'lgan paytda keraksiz sarf-harajatlarning ortishi ham qo'lda pul tutishning tannarxiga kiritiladi;*

Shu tariqa M.Fridman boylikni pul shaklida bo'lmagan moliyaviy qimmatbaho qog'ozlar va moliyaviy bo'lmagan (moddiy va bashariy sarmoyalar) aktivlar shaklida tutib turishning daromadlari va tannarxini izohlab, bular yordamida o'zining pul talab funksiyasini yaratadi, ya'ni;

$$M/r = f(P, r, R_b, R_e, 1/p.dp/dt, Y_d, W, u) \quad [3]$$

Bu yerda;

p – umumiy baholar darajasi. Baholar ortishi ko'zatilganda aholi va firmalarning pul talabi kamayadi va boyliklarini boshqa moliyaviy va nomoliyaviy aktivlar sifatida tutadi va aksincha;

r – foiz darajasi. Foiz darajasi ortishi pul talabining qisqarishga va pul miqdorining omonatlarga yo'nalishiga sabab bo'ladi;

R_b, R_e – qimmatbaho qog'ozlar va aksiyalarning daromadlilik darajasi. Dvidentlar miqdorining ortishi va mavjudligi doimiy daromadning shakllanishiga imkon berib pul talabini qisqartiradi;

$1/r.dp/dt$ – vaqt birligi ichida ortuvchi baholar darajasi yoki inflyatsiya darajasi. Inflyatsiya darajasi ortganda pul talabi ham ortib boradi;

Y_d – aholi daromadlari. Aholi daromadlarining ortishi pul talabining ortishiga olib keladi;

W – bashariy sarmoya. O'z farzandi yoki xodimini pullik uqishga yuborgan oila yoki firmaning pul talabi orta boshlaydi. Bu ba'zan kechiktirilgan qarz deb ham yuritiladi;

u – zavq va qiziqishlar. Naqd pulga bo'lgan qiziqish hamda zavq naqd pul talabini orttiradi;

²⁴ Лекин инфляция даврида энг тез қиймат йўқотувчи актив пулдири, чунки инфляция пулнинг эпидемияси ҳисобланади®.

M.Fridmaning pul talabi funksiyasining muhim jihati shundaki, ushbu pul talabi funksiyasi mikro va mikroiqtisodiy tahlil talablariga to'la javob beradi, ya'ni bu formula mikroiqtisodiy tahlilda boshqa, makroiqtisodiy tahlilda boshqa ko'rinish olmaydi. M.Fridman bu formulaga asoslangan holda olib borgan tadqiqotlari natijasida quyidagi natijalarni qo'lga kiritadi.

i. pul talabi barqaror va muvozanatlidir, pul talabining barqarorligi Keyns ta'kidlagan spekulativ pul talabini yo'qqa chiqaradi;

ii. pul talabiga doimiy daromad tushunchasi katta ta'sir ko'rsatadi va Natijada, kunlik harajat uchun tutib turilgan pul miqdori joriy daromadning o'zgarishiga bog'liq;

iii. doimiy daromadga bog'liq holda pul talabi elastikligining yuqoriligi pulni bir tovar shakliga olib kelmoqda va pul talabining ortish tezligi boylikning ortish tezligidan yuqoridir;

iv. pul talabiga foiz darajalarining ta'siri kam bo'lsada mavjud. Chunki, iqtisodiyotda foiz darajalarining bir qancha turlari mavjud. Doimiy daromadning mavjudligi foiz darajalarining pul talabi ustida ta'sirini jo'da kichik holga keltiradi. Foiz darajalarining ta'siri nazariy nuqtai nazardan yuqori bo'lsa-da, amaliyotda mavjud bo'lmagan holatdir. Shunga ko'ra, «likvidlik to'zogi» amaliyotda yo'q hodisadir. Qisqa muddatdagina foiz darajasining pul talabiga ta'siri mavjud;

v. pul talabi bu lyuks tovarlar talabiga uxshaydi. Demak, kishilarning real daromadlari qanchalik ortsa pul talabi ham shunchalik orta boshlaydi. Bunga misol tariqasida M.Fridman 1867-1975 yillarda AQShda real milliy daromaddagi 1% lik ortish, real pul miqdoridagi 1,8%lik ortish oqibatida yuz berganligini izohlaydi;

vi. pulning aylanish tezligi ma'lum darajada barqarordir. Pulning aylanish tezligi qisqa muddatda barqarordir. Iqtisodiyotning rivojlanish davrida ortib, iqtisodiyotning torayish davrida esa kamayadi (Inkor nazaryasi aksiomasi).

Keyingi bosqichda, M.Fridman A.S.Pigouning nazariy qarashlari asosida doimiy daromad nazariyasini yaratadi. Doimiy daromad tushunchasining paydo bo'lishi klassik real daromad tushunchasi sababli yuzaga kelgan iste'mol va jamg'armaning holatiga bog'liq amaliy va nazariy muammolarni bartaraf qildi. Ya'ni:

Amaliy nuqtai nazardan; M.Fridman Saymon Kuznesning tahminlarga asoslangan holda AQShda XX asrning birinchi yarmida real daromadda muhim ortishlarning yuz berganligiga qaramasdan jamg'armaning daromadga ms shaklda ortmaganligini ta'kidlaydi. Ayni shaklda marjinal iste'mol mayli ham turli davrlarda o'xshash holatlarni ifodalaganligini ham aytib o'tadi. Xususan, marjinal iste'mol mayli yuqoridaromad holatida past daromadga nisbatan past bo'lganligini ham izohlaydi. Natijada, uzoq muddatda daromad ortishiga qaramasdan marjinal iste'mol mayli kamaymoqda. Demak, joriy daromad uzoq muddatli daromadning asosi hisoblanadi;

Nazariy jihatdan; joriy daromad tushunchasini Artur S.Pigou tanqid qiladi. Unga ko'ra, iste'mol xarajatlari faqat daromadga bog'liq emas, bir vaqtning o'zida sarmoyaga ham bog'liq. Demak, marjinal iste'mol mayli sarmoya-daromad munosabatlarining funksiyasi hisoblanadi.

M.Fridman o'zining doimiy daromad nazariyasi bilan Keyns nazariyasiga qattiq zarba beradi. Jumladan;

i. Jamg'arma-daromad nisbati daromad darajasidan mustaqil bo'lganligi sababli, bir mamlakatda daromadning pastligi, shu mamlakatda jamg'armalarning ham kamayishiga sabab bo'ladi deyish xato. Aksincha, daromadning qisqa muddatda ortishi jamg'armalar miqdorining past darajada qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Chunki, daromaddagi ortishning doimiy ravishda davom etishi tahmini oqibatida, joriy daromaddagiga nisbatan doimiy daromaddagi ortish, iste'mol xarajatlarning ortishiga sabab bo'ladi.

ii. Bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida jamg'armalarning shakllanish mexanizmi uning miqdoridan muhimdir. Jamg'armalarning shakllanish mexanizmida daromad tengsizligining ulushini doimiy daromad nazariyasi yordamida tushuntirish mumkin.

iii. Iqtisodiy kon'yukturadagi tebranishlar yoki samarasiz investitsiyalar sababli iste'mol va joriy daromad o'rtasidagi nisbatni tartibga solish borasida iqtisodiy qarorlar qabul qilish noto'g'ri.

Shu tariqa, M.Fridmaning doimiy daromad nazariyasi o'zining ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi.

M.Fridman har bir iqtisodiy sub'ektning (shaxs, oila, aholi, firma va davlat) har yili pul miqdorida ortishni kutishini ta'kidlaydi. Shunga ko'ra, qayta yuzaga keladigan muvozanat omillarini quyidagilardan iborat deb ko'rsatadi:

i. agar iqtisodiy sub'ektlar real pul miqdorini qisqa muddatda talablariga moslashtirsa, real ko'rsatkichlar o'zgarmaydi. Chunki, barcha sub'ektlar kelajakdagi baholar darajasini o'zgarms deb

tahmin qilganliklari sababli baholar darajasi va nominal daromad miqdori nominal pul miqdori kabi xarakterda bo'ladi;

ii. agar iqtisodiy sub'ektlar real pul miqdorini qisqa vaqtda kutilgan darajada qulga kiritolmasalar, real pul miqdoridagi o'zgarishlar boshlang'ich darajaga yetgunga qadar davom etadi. Agar, baholar darajasi va nominal daromadga ortishlar pul miqdoridagi ortishdan past bo'lsa (ya'ni pul miqdoridagi 1% lik ortish yuz berganda, baholar va nominal daromad 0,5%ga ortsa) daromadga ko'ra real pul miqdori tez ortadi. Natijada, iqtisodiy sub'ektlar boshlang'ich holatga qaytish xarakati bilan baholarning ortishiga sababchi bo'lib qoladilar.

M.Fridman pul miqdoridagi o'zgarishlarning daromad miqdoridagi o'zgarishlarga baholar va ishlab chiqarish miqdori vositasida ta'sir ko'rsatishini tahlil qilgandan sungra, nominal daromadni belgilaydigan omillarni alohida tahlil qilishga kirishadi. M.Fridmaning bu mavzudagi tahlillari shiddatli munozara va tortishmalarga sabab bo'ldi. Miqdorchi sifatida M.Fridman ilk bosqichda monetar tebranishlarning baholar darajasiga ta'sirini o'rganib chiqadi, ya'ni M.Fridman inflyatsiya hodisasini o'z uslubi bo'yicha tahlil qilib, baholar darajasidagi ortishga qarshi foiz darajasi qanday reaksiya ko'rsatishini o'rganib chiqadi. Ikkinchi bosqichda esa mashhur Fillips egrisidan xarakter qilib, baholar darajasi va ishlab chiqarish miqdori o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganib chiqadi.

M.Fridmanga ko'ra, baholar darajasidagi ortishning asosida katta miqdorda pulning muomilada mavjudligi yotadi. Shu no'qtai nazardan inflyatsiya hamma yerda va har doim monetar hodisa bo'lib, iqtisodiy sub'ektlarning xukumatga to'lab beradigan yopiq shakldagi soliq turidir.

M.Fridmanga ko'ra inflyatsiyaga qarshi tadbirlarda ikki masala o'z yechimini topishi kerak. Biri, monetar cheklov bo'lsa, ikkinchisi boshqa nazorat vositalaridan foydalanish. Shu bilan birga inflyatsiyaning ikki xususiyati bor. Biri shakli ya'ni ko'rinishi – bu yuqori baholar darajasi, ikkinchisi esa asosi ya'ni manbasi – pul massasining ortiqchaligidir.

Antiinflyatsion tadbirlarda har yerda va har vaqt yagona chora pul massasining sur'atli ravishda ortishining oldini olish hisoblangan. Boshqa barcha tadbirlar muvofaqqiyatsizdir. Xususan, nazorat va idoraviy shakldagi tartiblar faqat inflyatsiyaning shaklini o'zgartiradi, ya'ni baholarning ortishini cheklaydi, ammo manbasini, ya'ni ortiqcha pul massasini tartibga sololmaydi.

M.Fridman o'z qarashlarini izohlash uchun baholarni nazorat qilish tadbirini inson tanasi haroratini o'lchaydigan termometr misolida tushuntirib beradi. Termometr tana haroratini o'lchagani kabi baholar ham inflyatsiya darajasini aks ettiradi. Tana haroratini o'lchashni bilmaslik yoki termometrni sindirib tashlash inson tanasi haroratining tushishiga sabab bo'lmaganidek, baholarni nazorat qilish inflyatsiya hodisasini yo'qqa chiqarmaydi.

Faqat bu ikki holat o'rtasida muhim bir farq bor. Termometrni sindirish inson tana haroratining tushishiga sabab bo'lmaganidek, uning ortib borishini kuzatish imkonini yo'qqa chiqarsa, baholarni nazorat qilish bundan ham og'ir oqibatlariga sabab bo'ladi. Chunki, baholar o'tish davrining (yuqorida izohlandi) asosiy unsuri hisoblanadi.

M.Fridman monetar o'zgaruvchilarning qisqa muddatda ta'sirini inobatga olgan holda xukumatlar tomonidan nima uchun inflyatsiyani tashviq qiluvchi siyosatlar amalga oshirilishining sabablarini ochib berishga harakat qiladi. Ma'lumki, inflyatsionist siyosatlar natijasida qo'lga kiritiladigan imkoniyatlar, antiinflyatsion siyosatdan so'ngra o'z kuchini yo'qotishi bilan siyosatchilar takroran inflyatsionist (inflyatsiyaga tashviq qiluvchi) siyosat yuritishni davom ettirsalar, bu safar inflyatsiyaning oldini olish imkoniyati muammo bo'ladi. Chunki, inflyatsiya iqtisodiy holatga moslashib, antiinflyatsion tadbirlarga qarshi immunitet shakllantiradi. Bu asosan iqtisodiy sub'ektlarning inflyatsion tahminlari hisobiga yuz beradi.

Xulosa va takliflar.

O'rganilgan nazariyalarni taxlil qilish asosida quyidagi xulosaga kelindi.

1.Hukumatlarning pul miqdorini orttirish shaklida xarakterlarining mantiqli bir asosi, u ham bo'lsa xukumatlarning inflyatsiyadan o'z daromadlarini orttirish istagidir. Ma'lumki, bahodagi ortishlar iqtisodiyotdagi moddiy va moliyaviy aktivlarning qiymatini (narxini emas) tushiradi. Bu qiymat tushishi uning egasiga baholarning ortishi hisobiga to'lanadigan soliq shaklida ta'sir ko'rsatadi.

2.Narxlarning ortishi natijasida aktivlarning baholardagi ortishi hisobiga soliq changali shakli soliq yukini ortishi va soliq to'lovlari ortadi. Inflyatsiyaga qarshi soliq to'lovlarning indeksatsiya qilinmasligi esa xukumatning foydasiga. Faqat omonatlarni inflyatsiya qarshi indeksatsiya qilinish esa qo'shimcha daromadlardan qonuniy soliq to'lovlarning ortishini olib keladi.

3.M.Fridman o'z nazariy qarashlarida mehnat bozori borasidagi qarashlarga ham o'z fikrini bildiradi. M.Fridman tomonidan Fillips egrisi amaliy tadqiqot sifatida ikki sababga ko'ra, tanqidga uchradi;

Birinchisi; past baholar darajasida, ya'ni past inflyatsiya darajasida ishsizlik mavjud ekan, nega yuqori inflyatsiya darajasida ham, ya'ni stagflyatsiya davrida ham ishsizlik mavjud? Demak, inflyatsiyaning ishsizlik bilan aloqasi yo'qmi? Ushbu holat Fillips nazariyasida izohlanmagan.

Ikkinchisi; M.Fridmanga ko'ra, Fillips yana ikkita xatoga yo'l quygan. Ilk xatosi, nominal ish xaqi miqdorini real ish xaqi miqdoridan ahamiyatli deb hisoblagan bo'lsa, navbatdagisi Tabiiy ishsizlik darajasiga e'tibor qaratmagan.

4.M.Fridman o'z nazariy qarashlarida tarmoqlar nazariyasini tanqid qilgan holda kon'yuktura nazariyasini ilgari suradi. Unga ko'ra, pul miqdoridagi o'zgarishlarning iqtisodiy tebranishlarning asosiy manbasi ekanligini isbotlash uchun quyidagi uchta shart inobatga olinadi;

5.M.Fridmanning iqtisodiy nazariyaga qo'shgan hissasi bo'lar bilan tugamaydi. Biz bu yerda M.Fridman qarashlarining asosiy mezonlarini ko'rib chiqdik. M.Fridman, nisbiy baholar tushunchasi bilan nominal baholar tushunchasining mantig'ini, doimiy daromad nazariyasi bilan nominal va rel daromad tushunchalarining dinamikasini ochib berdi. Tabiiy ishsizlik nazariyasi bilan Fillips egrisining monetar talqinini ishlab chiqdi. Kon'yukturaviy tahlilning ahamiyatini ochib berdi. Ayniqsa, M.Fridman xalqaro munosabatlar va valyuta ko'rsllari muvozanati borasidagi fikrlari tahsinga sazovordir. Bu yerda u Markaziy bank vakolatini, vakolatdan ortiqcha xarakatlarning javobgarligini aniq chegaralar bilan belgilab bergan.

Adabiyotlar / Jumepamyra / Literature

Fozilov R.P. (1995) «Yeni gelysen ulkelerde merkez bankasının iktisadi ıstıkrarı sađlamadaki rolü» *Yük.lisans.tezi. Uludađ Üniversitesi. Türkiye-Bursa. s. – 43.*

Fozilov R.P. (1995) «Yeni gelysen ulkelerde merkez bankasının iktisadi ıstıkrarı sađlamadaki rolü» *Yük.lisans.tezi. Uludađ Üniversitesi. Türkiye-Bursa. s. – 51.*

Fridman M. (2006) *Kapitalizm va erkinlik / ing.tarjima. –M.: yangi nashr. -240 s*

Ismoilova, G., Fozilov, R., & Nabieva, F. (2019). *Modern money theories. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 8(6), 1425-1434.*

Ismoilova, G., Nabieva, F., Rahmatullaev, M., & Umarova, G. (2020). *Macroeconomic development and factors affecting on it. International Journal of Scientific and Technology Research, 9(3), 3542-3545.*

Parasiz I.M. (1995) «Para ve banka: teorik ve politik uygulamalar» *Türkiye – Bursa: Ezgi,. -s. 326.*